

VOLUME-6, ISSUE-3

SHOIRNING YURAK MULKI

Firuzza Buriyeva, filologiya fanlari doktori (DSc),

Samarqand davlat pedagogika instituti

feruzaburiyeva79@mail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy shoir Salim Ashurning futurizm, kubizm kabi “shaklbozlikka asoslangan” oqimlariga ergashganligi u qadar sezilmasa-da, uning ayrim she’rlarida ba’zan inson qalbining anglamsiz puchmoqlari ham favqulodda namoyish etilgani, dunyoviy munosabatlarning o’tkinchiligi safqatsiz ravishda fosh qilingani ijodkorning avangard adabiy oqimlarga mansubligini aks ettiradi. Ya’ni Salim Ashur asarlarini boshqa shoirlar, masalan, Faxriyor she’rlari bilan qiyoslaganda, aytish mumkinki, u postmodern uslublardan foydalandi, ammo modern alomatlar she’rlarning janr-shakllari yoki so‘zlik va imlo xususiyatlarida emas, balki ifoda tarzida, pafosda, lirik qahramon dunyoqarashida ko‘proq namoyon bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: adabiy an’ana, peyzaj, xronotop, detal, kompozitsion tuzilish, tarjimonlik, modernizm, futurizm, almeizm, syurrealizm.

СЕРДЦЕ ПОЭТА — СОБСТВЕННОСТЬ

Фируза Буриева, доктор филологических наук (DSc),

Самаркандский государственный педагогический институт

feruzaburiyeva79@mail.ru

Аннотация. Хотя не столь очевидно, что современный поэт Салим Ашур следовал «формализмоцентрическим» движениям, таким как футуризм и кубизм, тот факт, что в некоторых его стихотворениях бессмысленные тайны человеческой души порой необычайно ярко проявляются, а бренность мирских отношений жестоко обнажается, отражает принадлежность автора к авангардным литературным направлениям. То есть, сравнивая произведения Салима Ашура со стихами других поэтов, например, Фахриёра, можно сказать, что он использовал постмодернистские стили, но современные признаки были более очевидны не в жанровых формах или лексике и орфографических особенностях стихов, а в манере выражения, пафосе и мировоззрении лирического героя.

Ключевые слова: литературная традиция, пейзаж, хронотоп, деталь, композиционная структура, перевод, модернизм, футуризм, альмеизм, сюрреализм.

THE POET'S HEART @mail.ru

Annotation. Although it is not so noticeable that the modern poet Salim Ashur followed such "formalism-based" movements as futurism and cubism, the fact that in some of his poems the meaningless riddles of the human soul are sometimes extraordinarily displayed, and the transience of worldly relations is brutally exposed, reflects the creator's belonging to avant-garde literary movements. That is, when comparing Salim Ashur's works with other poets, for example, the poems of Fakhriyor, we can say that he used postmodern styles, but his modern features were more manifested not in the genre forms or vocabulary and spelling features of the poems, but in the manner of expression, pathos, and the worldview of the lyrical hero.

Keywords: literary tradition, landscape, chronotope, detail, compositional structure, translation, modernism, futurism, almeism, surrealism.

Badiiy adabiyot, uning yaratuvchilari haqida so‘z ketar ekan, insonning ko‘z o‘ngida beixtiyor kahkashon va undagi millionlab sayyoralar namoyon bo‘ladi. Yulduzlar yorqin va nursizligi, ulkan

va mo'jazligi bilan bir-biridan yaqqol farq qilsa-da, ularning nurga yo'g'rilganligi va har birining alohida olam ekanligini ijodkorlarga qiyoslash mumkin.

Quyida so'z yuritmoqchi bo'lganimiz, hozirgi she'riyatimiz yorqin vakillaridan biri, 90-yillarning iste'dodli shoiri Salim Ashur she'riyati ham serjilo va sohirligi, ham bir qaraganda o'zbekning o'zligini namoyon etib turgan nihoyatda milliylikka yo'g'ragan an'anaviy nazm namunalarini bo'lib ko'rinsa, ba'zan esa uning lirik ifodalari g'arbonsa ruhni o'zida singdirgani ayon bo'ladi. Shuningdek, shoir ijodida publitsistik tashviqiylik ufurib turgan bayramona "o'tkinchi" she'rlar ham yo'q emas. Aniqrog'i, an'anaviy adabiy mezonlar bilan o'lchaganda, uning she'rlari orasida eng yaxshilar bilan bir qatorda o'rtamiyona va hatto tanqidga loyiqqlari ham ko'zga tashlanadi.

Asli surxondaryolik bo'lgan Salim Ashur ijodiy faoliyatini 80-yillarda boshlagan bo'lsa-da, shoirning dastlabki she'riy to'plami 1994-yil "Yashil giyoh"[5] nomi bilan bosilib chiqdi. Uning bugungacha «Siz ertaga kelasiz» (1999), «Kechikkan tong» (2002), «Atalgan kunlar» (2004), «Darz» (2006)[5], "Mangu el"(2022)[2] kabi to'plamlar nashr etildi. Bundan tashqari shoir ko'pgina shoirlar singari tarjimonlik faoliyati bilan ham shug'ullanib, Petrarka[6] A. Blok, I. Bunin, A. Fet she'rlaridan namunalar hamda J. P. Sartr, K. Paustovskiyning qissa va ba'zi hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilgan.[5] Bugungi kunda ijodiy sarhisob davrida bo'lgan shoir she'riyati yuqorida ta'kidlanganidek, dastlabki tasavvurda o'ta an'anaviy ko'rinadi. Ular orasida mumtoz va XX asrning buyuk shoirlari she'rlarini yodga tushiruvchi namunalar talaygina bo'lib, masalan, "Yurak mulki", "Toshkent oqshomlari", "Toshkent manzumi" "Eski chiroq shu'lasida" kabi bir qancha she'rlari mavzu va kompozitsion tuzilishiga ko'ra shoirning Maqsud Shayxzoda she'riyatiga alohida ixlos va shogirdlik nazari bilan qaraganligini bildirsan, poetik betakrorligi bilan e'tiborni tortuvchi "Ayol" she'rida esa nozik ayollarning go'zalligini bor nafosati va bezak vositalari bilan erinmay birma-bir ta'riflaydiki, bunda u Furqatning "Kelinchak" g'azalidagi yorni ta'riflash usulini yodga tushiradi:

*Gapirganda chayqar boshini,
Moychinak o'rganmi qoshini?*

*Bo'yni tongdan olganmi ta'lim?
Balki oqqush bo'lgan muallim.*

*Yoqasida osilgan zanjir,
Har odimda titraydi dir-dir.[2.44]*

Ko'rinadiki, shoir she'riyati ifoda tasviri, qo'llanilgan vosita va usullarga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Ya'ni ijodkorning bir guruh she'rlari lirik qahramoni, obrazlari, peyzaj, xronotop, detallar va boshqa poetik vositalariga ko'ra o'zida yaqqol milliylikni namoyon etib turadi. Mazkur ijod namunalarini kompozitsion tuzilishiga ko'ra ham an'anaviydir. Shuningdek, ularda shoir har qanday poetik vositadan milliy ruh ifodasini aks ettirish maqsadida foydalanadi. Bunday she'rlar jumlasiga shoirning "Mangu el" to'plamidan o'rin olgan "Onajon ona", "Sen kelganda", "Teraklar shovullar", "Ayvonda o'ynaydi nur", "Sendek yor", "Eshigingning oldi", "Oq daryo, qora daryo", "Nur elagan kaftlarimda gullarim titraydilar" kiritish mumkin. Masalan, ushbu she'riy parchada peyzaj shunday vazifa bajaradi:

*Teraklar shovullar devor ortida,
Olamga taralar go'dak kulgusi,
Tovushlar o'tadi shamol ortida,*

Yaproqlarda o'ynar ufq yog'dusi.[2.37]

Ushbu she'riy parchada esa *badiiy detallardagi o'ziga xoslikni ko'rishimiz* mumkin:

Onam kovushi

Esimdan chiqmaydi onam ravishi,

Devor soyasida ko'rpa qavishi,

Onam shu ko'chadan ketdi yiroqqa...

Bo'sag'ada turar hamon kovushi.[2.58]

Yana shoirning bir mo'jaz nazmida *xronotop va detallar* orqali Vatan timsoli betakror tarzda qiyidagicha ifodalanadi:

Vatan

G'o'zapoya yonib qizisa tandir,

Bolalar jam bo'lsak, olam chamandir.

Otam do'ppisining changini qoqsa,

Onam choy damlasa, issiq vatandir.

Bunday quyma satrlar qachonki iste'dod kamolotga yetib, ijodkor mahorati shakllangan pallalardagina yuzaga keladi, shoirning ushbu to'rtligi uning o'ziga ham ma'qul, qadrli misralar bo'lganki, shoir to'plamlaridan birining "Issiq uy"[6] deb atalishi bundan dalolat beradi.

Endi Salim Ashur ijodining boshqa qirrasiga keladigan bo'lsak, ularda G'arb she'riyatidan ta'sirlanish yaqqol seziladi. Buni esa avvalo uning tarjimonlik faoliyati bilan aloqador bo'lsa, ikkinchidan hozirda ba'zan istiqlol davri adabiyoti deb atalib kelayotgan davr she'riyatiga xos poetik xususiyatlarning davr vakili bo'lgan shoir ijodida ham aks etganligi bilan izohlash mumkin. Shoirning o'z iqroriga ko'ra u ijodga kirib kelgan pallalarda dastlab turli adabiy oqimlarning ishqibozi bo'lgan, poeziyada futurizm, almeizm, prozada syurrealizmni o'rgangan, ularda qandaydir erkinlik va daxlsizlikni his etgan.[4] Darhaqiqat, shoir modern adabiyotdagi "shaklbozlikka asoslangan" oqimlariga ergashganligi u qadar sezilmasa-da, uning ayrim she'rlarida ba'zan inson qalbining axloqsiz puchmoqlari ham favqulodda namoyish etilgan, dunyoviy munosabatlarning o'tkinchiligi safqatsiz ravishda fosh qilingan tasvirlarda uning avangard adabiy oqimlarga ergashganligi ham ko'zga tashlanadi. Ya'ni Salim Ashurni zamondosh shoirlar, masalan, Faxriyor bilan qiyoslaganda, aytish mumkinki, ijodkor postmodern she'riy uslublardan foydalandi, ammo bu uning she'rlari janr-shakllari yoki so'zlik va imlo kabilarda emas, balki ifoda tarzida lirik qahramon dunyoqarashida ko'proq namoyon bo'ldi. Ijodkor bu kabi she'rlari inson va makon tasvirlarida nasrga xos syurrealizmlikni ko'ramiz. Shoir ko'pincha lirik qahramonini kamchiliklar va salbiy illatlardan xoli bo'lmagan real shaxs sifatida tasvirlashga intildi:

Kecha uni sevganligim rost,

Bugun sizni sevganim ham chin.

Unutaman sizni ertaga,

O'zga uchun ertaga sevgim.[2,179]

Yoki

Ichdim. Chekdim. Xushro'y qizlarga

Tinchlik bergim kelmadi sira.

Yuragim ham tilla tugmaday

Shamshod qizdan qolgan xotira.[2.199]

Darhaqiqat, Salim Ashur ijodiy yoʻnalishiga koʻra modern adabiyot vakili. Uning nomi adabiyotshunoslikda ushbu oqimga mansub deb sanalib kelinayotgan sanoqli shoirlar Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Bahrom Roʻzimuhammad, Goʻzal Begim kabi shoirlar qatorida tilga olinadi. Bilamizki, mazkur shoirlarning har biri serqirra ijod yonalishlariga ega. Ammo Salim Ashur ijodidagi modernlik sheʼriy vaznlardagi va ifoda tarzidagi erkinlik yoki shakl borasidagi izlanishlarda namoyon boʻlmadi. Balki, sheʼrlardagi pafos va lirik qahramon ruhiyatidagi oʻzgachalik orqali aks etdi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Назар Эшонкул. Мендан «мен»гача: адабий-танқидий мақолалар тўплами. – Т. Akademyashr, 2014. – Б.85.
2. Салим Ашур. Мангу эл. Тошкент. – “ADABIYOT” нашриёти, 2022 yil. – 432 bet.
3. Қуронов С. Ифода ва ифодавийлик. – Тошкент, “Akademyashr”, 2013. – 88 б.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/salim-ashur-sheirlar.html>. 06.07.2018.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Salim_Ashur
6. https://kitobxon.com/ru/yozuvchi/salim_ashur